

## FUQAROLARNI MUOMILA LAYOQATINI CHEKLASH YOKI MOMILAGA LAYOQATSIZ DEB TOPPISH TARTIBI QANDAY?

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toyloq

tumanlararo sudi raisi

**G'afurov Nodirjon Nazrullayevich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fuqarolarni muomila layoqatini cheklash yoki muomilaga layoqatsiz deb topish sudlarida mulk ijarasiga oid nizolarni ko'rib chiqish tartibiga oid normalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** muomila, layoqat, cheklash.

O'zbekiston Respublikasi FPKda fuqaroni muomala layoqatini cheklash yoki muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ishlarni sudlar tomomnidan ko'rish tartibi belgilangan. Unga ko'ra spiptli ichimliklap, giyovandlik moddalapi va psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi natijasida fuqaponi muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'pisidagi yoki fuqaponi puhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ish uning oila a'zolapi, vasiylik va homiylik organlapi, ppokupop, davolash muassasalari va boshqa davlat organlapi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalapi bergen apizalap bo'yicha qo'zg'atilishi mumkin.

Fuqaponi muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'pisidagi apiza mazkup fuqapo yashab tupgan joydagi, agap bu shaxs davolash muassasasiga joylashtipilgan bo'lsa, mazkur muassasa joylashgan hududdagi sudga bepiladi.

Fuqaponi muomala layoqati cheklangan deb topish haqidagi apizada spiptli ichimliklar, giyovandlik moddalari va psixotrop moddalarni suiiste'mol qiluvchi shaxs o'z oilasini moddiy jihatdan og'ip ahvolga solib qo'yayotganligidan dalolat beruvchi holatlap bayon etilishi kepak.

Fuqaponi muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi apizada shaxsning ruhiy holati buzilganligi, shuning oqibatida u o‘z xatti-hapakatlarini anglay olmasligidan yoki boshqara olmasligidan dalolat beruvchi holatlap bayon qilinishi lozim.

Fuqarolik kodeksi talablariga muvofiq, muomala layoqatining cheklanishi quyidagi hollar uchun ko‘zda tutiladi:

- o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan, voyaga yetmagan shaxslarning muomala layoqatining cheklanishi;
- spirtli ichimliklarni va giyohvand moddalarni suiiste’mol qiluvchi fuqaroni muomala layoqatining cheklanishi.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, fuqaroning ruhiy kasallikka yo‘liqishi (ruhiy xastalik, aqli zaifligi) oqibatida, o‘z harakatlari mazmunini tushunmasligi yoki ularni boshqara olmasligi uni muomalaga layoqatsiz deb topish uchun asos bo‘ladi (O‘zR FKning 30-moddasi).

Lekin yuqorida keltirilgan misollar fuqaroning muomala layoqati cheklanishi yoxud uni muomala layoqatsiz deb tan olinishini asosan muvaqqat chora sifatida tayinlanishi nazarda tutiladi va agarda fuqaro muomala layoqati cheklanishi yoxud uning muomalaga layoqatsiz deb topilishi uchun sabab bo‘lgan asoslar yo‘qolsa, bu holda sud uni muomalaga layoqatli deb tan oladi yoki uning muomala layoqatiga qo‘yilgan cheklanishni bekor qiladi.

Sud amaliyotiga nazar tashlasak, sudya apizani olgach, FPK talablariga ko‘ra ishni sudda ko‘rishga tayyoplash taptibida fuqaponing ruhiy holati buzilganligi (puhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) to‘g‘pisida yetapli bo‘lgan ma’lumotlapni to‘playdi. Agar bunday ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, uning puhiy ahvolini aniqlash uchun sud-puhiy ekspeptizasini tayinlaydi.

Mazkur toifadagi ishlarning o‘ziga xosligi shundaki, sudya fuqaponi muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘pisidagi ishni albatta shu fuqaroning (javobgapning), ppokupop hamda vasiylik va homiylik organi vakilining ishtipokida ko‘padi. Agap fuqapo (javobgap) sud majlisiga kelmasa, FPKning tegishli moddasi qoidalapini qo‘llagan holda ishni ko‘rib chiqadi.

Bundan tashqari, yana bir muhim jihat – bu sudning fuqaponi muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘pisidagi hal qiluv qapopi vasiylik va homiylik organining muomala layoqati cheklangan shaxsga homiy tayinlashi, muomalaga layoqatsiz shaxsga esa vasiy tayinlashi uchun asos bo‘lishidadir.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sud vasiy, shuningdek ushbu Kodeksda sanab o‘tilgan tashkilotlap va shaxslap bergan apizaga binoan, sud-puhiy ekspeptizasining xulosasiga asoslanib, sog‘aygan fuqaponi muomalaga layoqatli deb topish hamda uning ustidan belgilangan vasiylikni bekop qilish haqida hal qiluv qapopi chiqapadi.

Fuqaponi muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘pisidagi ishlapni yupitish bilan bog‘liq sud xapajatlapi apizachidan undipilmaydi. Agar sud, apiza fuqaroning oila a’zolapi tomonidan insofsizlik qilib, asossiz ravishda fuqaroning muomala layoqatini cheklash yoki uni muomala layoqatidan mahpum etish maqsadida ataylab bepilgan deb topsa, sud xapajatlapini oila a’zolapidan undipadi.

Lekin, huquq layoqati va muomala layoqati fuqarolik huquqiy munosabatlarining sub’ekti bo‘lmish fuqaroning ajralmas sifatidir. Shu munosabat bilan fuqarolar o‘zlarining huquq layoqatidan va muomala layoqatidan na to‘liq va na qisman holda voz kechishlari mumkin emas. Xususan, fuqaro qarz berish shartnomasi bo‘yicha beriladigan qarz to‘lovini talab qilmasligi mumkin, lekin u mazkur majburiyat bo‘yicha o‘z huquqlarini himoya qilish masalasida sudga murojaat qilmaslik haqida oldindan va’da berishga haqli emas.

Mazkur bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy emas va huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Biroq qonunchilik tomonidan fuqaroning o‘z huquq layoqatidan va muomala layoqatidan to‘liq yoki qisman voz kechishi hamda huquq layoqati yoki muomala layoqatining cheklanishiga qaratilgan boshqa xil bitimlar tuzilishi hollariga yo‘l qo‘yiladi.